

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№10-SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, OKTABR



OPEN ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, “Marketing” kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU “Marketing” kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrayevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI, “Marketing” kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, “Menejment” kafedrasini mudiri, dotsent;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muvini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduxayidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, “Turizm va servis” kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti “Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish” kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.n., DSc, NamDTU, “Menejment” kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsent v.b.

Elektron nashr 661 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-oktabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

MINTAQALAR RIVOJLANISHINING IMIJ YARATISHGA ASOSLAGAN NAZARIYALARI.....	7
Duschanov Alisher Sherzod o‘g‘li	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА: СЕЗОННОСТЬ И МИНИМИЗАЦИЯ ЕГО НЕГАТИВНОГО ВЛИЯНИЯ	14
Муминов Нозим Гаффарович, Қодирзода Фазлиддин Садриддин, Гусейнов Хафиз Фехруз Оғлу, Хубони Сорбон	
О‘ЗBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSION PORTFELNI BOSHQARISHNING SAMARALI TIZIMINI JORIY ETISH.....	21
Madrimov Shuhrat Bahodir o‘g‘li	
О‘ZBEKISTONDA TERICHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	28
Kadirova Maraljan Matyakubovna	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATI NATIJADORLIGI VA UNI SAMARALI BOSHQARISH.....	38
Muminov Dilmurod To‘xtasinovich	
О‘ZBEKISTONDA ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARI UCHUN AKSIZ SOLIG‘I BIRXILLASHTIRILGAN STAVKALARINING SANOAT KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI	45
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro‘zumurat o‘g‘li, Otabekov Otajon G‘ayrat o‘g‘li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
SANOAT INFRATUZILMASINING ASOSIY KOMPONENTLARI VA ULARNI BOSHQARISH HAMDA OPTIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	51
Rasulov Jamshid Karimovich	
О‘ZBEKISTONDA BIG DATA VA SUN‘IY INTELLEKT (AI) YORDAMIDA TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
THE ROLE OF AGRICULTURE IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY	66
Saurova Inobat Ikramovna, Kadirbergenova Shaydo Umirbekovna	
О‘ZBEKISTON QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENT STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	73
Temirov Azizbek Voit o‘g‘li	
UZUMCHILIK SOHASIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI	87
Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISH	98
Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNI VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	104
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
О‘ZBEKISTON HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALANISH DARAJASI TAHLIL QILISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Ibragimov Bahrom Bahodirovich	
IPAKCHILIK KORXONALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH MODELLARINI ISHLAB CHIQISH.....	117
Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	124
Alimov Muxammadbobur Ibragimjonovich	
ВНЕДРЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ «УМНОГО ГОРОДА» В УПРАВЛЕНИЕ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНЫМ ХОЗЯЙСТВОМ	131
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли	

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	141
Ортикхужаева Юлдуз Азатовна	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH USTUVOR MASALALARI.....	151
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
RESURS TEJAMKOR QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TARMOQ SAMARADORLIGI.....	157
Allasugirov Nurmuxammed Baxtiyarovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING ASSORTIMENT SIYOSATI VA UNI BOSHQARISHGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	163
Boboxo'jayev Baxtiyor Nazirxo'jayevich	
QURILISH SANOATI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI VA SHART-SHAROITIARI.....	170
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA MASHINAVIY O'RGANISH USULLARI ORQALI TALABNI TAHLIL QILISHGA USLUBIY YONDASHULAR.....	182
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА.....	189
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSİYALARDAN UNUMLI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	198
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALAR EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	207
Karrieva Yakutjan Karimovna	
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ.....	214
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
FRANCHAYZING VA KLAS TER YONDASHUVI SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI.....	225
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ELEKTRON TIJORATDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	231
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLAS TERLARINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA MEZONLARI.....	238
Sharipov Rasulbek Siddiqovich	
PARKENT TUMANIDA OLTIN BEL TOG' KURORTINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	246
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Fatema Nabizada Javid	
MINTAQADA KLAS TERLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MODELLARNI QO'LLASH MASALALARI.....	260
Kadirov San'at Yuldashevich	
AGROKLAS TERLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	266
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES MODELLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	273
Saatova Lolakhon Ergashevna	
HUDUDLARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASH.....	281
Salayeva Lobar Ulug'bek qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILLARI.....	290
To'rayev Sardorbek To'rayevich	
MINTAQQA IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	297
Turayev Og'abek Kaxramonovich	

TRANSFORMATSION IQTISODIY RIVOJLANISHDA SHAHAR BOSHQARUVINING YANGI MODELI SIFATIDA URGANCH TAJRIBASI	305
Radjabov Bunyod Madirimovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY PUL OQIMLARI VA STRATEGIK MARKETING INTEGRATSIYASI.....	312
Masharipova Shahlo Adambaevna	
EKSPORT FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA MOLIVAVIY MEXANIZMLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI	320
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	328
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	336
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SUN'IY INTELLEKT VA ANALITIK PLATFORMALAR YORDAMIDA RAQAMLI MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	345
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
BARQAROR MAHALLANI REJALASHTIRISHDA AQLLI MAHALLA TIZIMI IMKONIYATLARI.....	356
Qulmatova Sayyora Safarovna	
OLIY TALIMGA TALABALARNI JALB ETISHNING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI	362
Isamuxametov Shukurullo Asatullayevich	
BANK MENEJMENTIDA MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARNI BOSHQARISH (CRM) TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	369
Kuliev Naim Xalimovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING IJTIMOY TARMOQLARDAGI REYTINGINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR	382
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
MINTAQAVIY XIZMATLAR SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MENEJMENT SIFATINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	388
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
FRANCHAYZING BRENDLARI UCHUN "BREND" KONSEPSIYASINING ILMIY ASOSLARI VA AMALIY NATIJALARI.....	399
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQQA IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	410
Turayev Og'abek	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASINING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI	418
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING TASHQI SAVDO FAOLIYATIGA BANKLAR TOMONIDAN HISOB-KITOB XIZMATI KO'RSATISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	427
Ibodullayeva Ma'rifat To'liqin qizi	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA MEXNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	436
Yusupova Dildora Turadjanovna, Musayev Shavkatjon Kayumjonovich	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH	441
Jumayev Shuxrat	
IMPROVING CONSUMER RIGHTS PROTECTION MECHANISMS IN UZBEKISTAN'S AUTOMOBILE DELIVERY SYSTEM: LEGAL FRAMEWORKS AND DIGITAL TRANSFORMATION DIRECTIONS	450
Raupov Abdurahmon Ilhomovich	
АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ НА ТУРИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК КАРАКАЛПАКСТАНА	457
Хошимова Камилла Навфал кизи	
ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA LEAN MENEJMENT TAMOIYILLARI.....	473
Bakayeva Mohira Axrorovna	

TURIZMDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING AMALIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	484
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH..	498
Djumanov Sayitmurod Alimbekovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF BANK ASSET MANAGEMENT: LESSONS FROM THE EU DIGITAL FINANCE STRATEGY FOR UZBEKISTAN (JEAN MONNET MODULE)	505
Shirnova Shokhsanam	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	511
С. Х. Халиков	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ: ТЕНДЕНЦИИ, СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ (ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА)	518
Кайыбеков Парахат Конысбаевич	
BANK SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: FINTECH YECHIMLARI VA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH INNOVATSIYALARI.....	525
Rasulov Nuriddin Abdullayevich, Axmedova Nodira Abdurashid qizi	
UZUM YETISHTIRUVCHI KICHIK VA O'RTA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI VA INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH UCHUN INNOVATSION RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI.....	530
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	541
Mamatkulova Nadira Makkamovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	555
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA 2026-YILGA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQLIGAN TAKLIFLAR.....	564
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
SAVDO-MAMLAKAT IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRUVCHI MUHIM OMIL	575
Soliyev Axmadjon	
TASHABBUSLI BYUDJET LOYIHASNINING MOLIALASHTIRISH MANBALARI TAHLILI	583
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIALASHTIRISH	591
Daniyarov Kuatbay Dauirxanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA TURAR-JOY KO'CHMAS MULK BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	601
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIAVIY HISOBOT TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	610
Avazov Ilhom Ravshanovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	618
С.Х. Халиков	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLARGA MOLIAVIY YORDAM KO'PAYTIRISH	625
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHDA TRANSFORMATSIYALASH JARAYONLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	631
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	642
Rahimov Akmal Matyaqubovich	
INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	653
Ochilov Akram Odilovich, Xasanova Aziza Ikromovna	

YASHIL IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) ORQALI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI

Allayarov Suxrob Rustamovich

TDIU “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrası dotsenti

ORCID:0000-0002-0565-3938

E-mail: s.allayarov@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, xususan, moliyaviy texnologiyalar (fintech)ning oʻrni va ularning barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Metodologik jihatdan maqolada tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va empirik kuzatuv usullaridan foydalanilgan. Asosiy eʼtibor “yashil” investitsiyalar, raqamli toʻlov platformalari, blokcheyn asosidagi moliyalashtirish vositalari va raqamli kreditlash mexanizmlarining afzalliklariga qaratilgan. Maqola yakunida fintech asosida yashil moliyalashtirish tizimini takomillashtirish boʻyicha institutsional, texnologik va normativ takliflar ilgari surilgan.

Kalit soʻzlar: yashil iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, fintech, barqaror rivojlanish, yashil moliyalashtirish, blokcheyn, raqamli toʻlovlar.

Аннотация

В данной статье проанализирована роль цифровых технологий, в частности финансовых технологий (финтех), в развитии концепции «зелёной» экономики и их значение в совершенствовании механизмов устойчивого финансирования. В методологическом плане использованы системный анализ, сравнительный анализ и эмпирические наблюдения. Основное внимание уделено преимуществам «зелёных» инвестиций, цифровых платёжных платформ, инструментов финансирования на базе блокчейн и цифровых механизмов кредитования. В заключительной части статьи предложены институциональные, технологические и нормативные рекомендации по совершенствованию системы «зелёного» финансирования на основе финтеха.

Ключевые слова: зелёная экономика, цифровые технологии, финтех, устойчивое развитие, зелёное финансирование, блокчейн, цифровые платежи.

Abstract

This article analyzes the role of digital technologies, particularly financial technologies (fintech), in advancing the green economy concept and highlights their significance in improving sustainable financing mechanisms. Methodologically, the study employs systematic analysis, comparative analysis, and empirical observation methods. The main focus is placed on the advantages of green investments, digital payment platforms, blockchain-based financing tools, and digital lending mechanisms. In conclusion, the article proposes institutional, technological, and regulatory recommendations for enhancing the green financing system through fintech.

Keywords: green economy, digital technologies, fintech, sustainable development, green financing, blockchain, digital payments.

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiy tizimda yuz berayotgan transformatsion jarayonlar barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik masalalarini iqtisodiy siyosatning markaziga olib chiqdi. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, atrof-muhitning ifloslanishi hamda energiya samaradorligi muammolari iqtisodiy o‘rta o‘tishning yangi, ekologik muvozanatga asoslangan modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishning yangi paradigmasi sifatida shakllanib, iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash bilan birga, ekologik barqarorlikni ham kafolatlashga qaratilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) ta‘rifiga ko‘ra, yashil iqtisodiyot “inson farovonligini oshiruvchi, ijtimoiy tenglikni kuchaytiruvchi va ekologik xavflarni kamaytiruvchi iqtisodiyot”dir. Shu bois, ushbu modelda moliyalashtirish manbalari, investitsion oqimlar va moliyaviy instrumentlar ekologik jihatdan mas‘uliyatli loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi zarur.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyotning to‘laqonli rivojlanishida moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada samarali ishlamasligi muhim to‘siqlardan biridir. An‘anaviy bank tizimi ekologik loyihalarning yuqori tavakkalchilik darajasi va uzoq muddatli rentabelligi sababli ularni moliyalashtirishda sustkashlik qiladi. Shu sharoitda raqamli texnologiyalar, xususan moliyaviy texnologiyalar (fintech) yangi avlod moliyaviy vositalar sifatida moliya bozorlarini demokratlashtirish, kapital oqimini tezlashtirish va barqaror loyihalarni innovatsion usulda qo‘llab-quvvatlash imkonini bermoqda. Fintech ekotizimi raqamli to‘lovlar, onlayn kraudfanding, raqamli bank xizmatlari, blokcheyn asosidagi tokenlashuv, sun‘iy intellekt yordamida kredit risklarini baholash kabi ilg‘or texnologik yechimlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar moliyaviy xizmatlarning ochiqqligi, shaffofligi va samaradorligini oshirish bilan birga, yashil investitsiyalarni jadal rivojlantirish uchun muhim infratuzilmaviy asos yaratadi.

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, fintech yechimlari orqali yashil moliyalashtirish jarayonlari ko‘plab mamlakatlarda allaqachon faol yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, Xitoyda “Green Digital Finance Alliance” tashabbusi orqali raqamli to‘lov tizimlari va blokcheyn asosidagi moliyalashtirish platformalari ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda keng qo‘llanilmoqda. Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa “sustainable fintech” konsepsiyasi doirasida raqamli moliyaviy vositalar barqaror investitsiya fondlari bilan integratsiyalashgan. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O‘zbekiston Respublikasida ham, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va fintech infratuzilmasining kengayishi yashil iqtisodiyotni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2019–2030-yillar)da qayd etilganidek, mamlakat iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va ekologik investitsiyalarni rag‘batlantirish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Shu jarayonda raqamli moliyalashtirish instrumentlari — mobil banking, raqamli kreditlash, elektron obligatsiyalar, tokenlashgan “yashil” aktivlar va blokcheyn

asosidagi hisob-kitob tizimlari — iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bilan birga, ekologik yoʻnaltirilgan kapital oqimini ham tezlashtirishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot va raqamli moliyalashtirishning oʻzaro uygʻunlashuvi soʻnggi yillarda xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tadqiqotlarda eng muhim mavzulardan biriga aylandi. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va fintech texnologiyalarining birlashuvi nafaqat moliyaviy vositalarning transformatsiyasiga, balki global miqyosda barqaror iqtisodiy modelning shakllanishiga olib kelmoqda.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining ilmiy asoslari. Yashil iqtisodiyot tushunchasining nazariy poydevori 1990-yillarda BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan “Green Economy Initiative” dasturiga borib taqaladi. Daly, Pearce, Markandya va Barbier kabi tadqiqotchilar iqtisodiy oʻsishning ekologik chegaralari mavjudligini taʼkidlab, “barqaror rivojlanish iqtisodiyoti” konsepsiyasini ilgari surganlar. Ularning fikricha, iqtisodiy siyosat ekologik resurslardan oqilona foydalanishni, iqlim oʻzgarishining salbiy taʼsirini kamaytirishni va “past uglerodli” ishlab chiqarishni ragʻbatlantirishi zarur.

Keyinchalik Jacobs va OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyani ham oʻz ichiga olishi taʼkidlanadi. Bu yondashuvda “yashil investitsiyalar” – energiya tejkor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik infratuzilma kabi sohalarga yoʻnaltirilgan sarmoyalar – iqtisodiy oʻsishni yangi sifat bosqichiga olib chiquvchi asosiy omil sifatida koʻriladi.

Moliyalashtirish muammolari va “yashil” moliya bozori. Adabiyotlarda yashil iqtisodiyotning keng miqyosda rivojlanishiga toʻsqinlik qilayotgan omillar orasida moliyaviy resurslar tanqisligi va investitsion xavflarning yuqoriligi alohida taʼkidlanadi. Stiglitz va Weiss kredit bozorlarida asimmetrik axborot muammosi mavjudligini, bu esa ekologik loyihalarni moliyalashtirishni qiyinlashtirayotganini qayd etgan.

OECD va World Bank hisobotlariga koʻra, yashil loyihalarni moliyalashtirishda xususiyl sektor ishtirokini oshirish uchun innovatsion moliyaviy instrumentlar zarur. Shu nuqtai nazardan, yashil obligatsiyalar (green bonds), yashil kreditlar, barqaror investitsiya fondlari kabi vositalar keng muhokama qilinmoqda. Biroq bu instrumentlarning anʼanaviy moliya bozorlarida yetarli darajada joriy qilinmagani, ularni kengaytirish uchun raqamli platformalar va fintech yechimlarining ahamiyatini oshirmoqda.

Fintech texnologiyalari va moliyaviy transformatsiya. Moliyaviy texnologiyalar (fintech) soʻnggi oʻn yillikda global moliya tizimining inqilobiy oʻzgarishiga sabab boʻldi. Arner, Barberis va Buckley tomonidan berilgan taʼrifga koʻra, fintech – bu raqamli texnologiyalar yordamida moliyaviy xizmatlarning samaradorligi, tezligi va inklyuzivligini oshirishga qaratilgan tizimdir. Shulardan asosiy yoʻnalishlar sifatida raqamli toʻlov tizimlari, onlayn kreditlash, kraudfanding, blokcheyn, sunʼiy intellekt asosidagi moliyaviy tahlil va “smart contract” texnologiyalari koʻrsatiladi.

Zavolokina, Dolata va Schwabe fintechni “moliyaviy innovatsiyalar ekotizimi” deb atab, uning asosiy afzalligi sifatida moliya bozorlarini demokratlashtirish, ya’ni kichik investorlar va startaplarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishni ko’rsatadi. Aynan shu jihat yashil iqtisodiyot uchun ham dolzarb bo’lib, kichik miqyosdagi ekologik loyihalarning moliyalashtirilishida yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Fintech orqali yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish tajribalari. So’nggi yillarda “green fintech” atamasi shakllanib, bu yo’nalishda ko’plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. KPMG va IMF hisobotlarida qayd etilishicha, raqamli moliya platformalari orqali ekologik investitsiyalarni jalb etish iqlim moliyasi (climate finance) tizimini yanada samarali qiladi. Masalan, Xitoyda “Ant Forest” mobil ilovasi orqali foydalanuvchilar raqamli tranzaksiyalar asosida virtual “yashil ballar” yig’ib, ularni real daraxt ekish loyihalariga yo’naltiradilar. Shu tarzda fintech texnologiyalari ekologik ongni oshirish bilan birga, mikroinvestitsiyalarni yashil iqtisodiyotga yo’naltirish imkonini beradi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida “Green Digital Finance Alliance” tashabbusi doirasida fintech kompaniyalari, banklar va davlat tuzilmalari hamkorligida barqaror investitsiyalarni raqamli yo’l bilan boshqarish platformalari yaratilgan. Shuningdek, Shvetsiya va Finlyandiyada blokcheyn asosidagi “green bonds” emissiyasi orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari sinovdan o’tkazilgan.

Raqamli moliyalashtirishning afzalliklari va cheklovlari. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki, fintech asosidagi moliyalashtirish tizimlari quyidagi ustunliklarga ega: (1) tranzaksiya xarajatlarining kamayishi; (2) shaffoflik va izchillikning oshishi; (3) tezkor kapital aylanishi; (4) moliyaviy inklyuziyaning kengayishi; (5) ekologik monitoring imkoniyatlarining yaxshilanishi. Shu bilan birga, ushbu sohada muhim cheklovlar ham mavjud: normativ-huquqiy bazaning yetarli emasligi, kiberxavfsizlik xavflari, ma’lumotlar maxfiyligi bilan bog’liq muammolar, raqamli tafovut hamda texnologik infrastrukturadagi nomutanosibliklar.

Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar fintechning haddan tashqari tijoratlashuvi barqarorlik tamoyillariga zarar yetkazishi mumkinligini ham ta’kidlaydi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni yashil iqtisodiyotga integratsiya qilishda davlat siyosati, regulyatsiya va ijtimoiy mas’uliyat o’rtasidagi muvozanatni saqlash zarur.

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, yashil iqtisodiyot va fintech o’zaro kesishgan nuqtada iqtisodiy rivojlanishning yangi paradigmasini shakllantirmoqda. Biroq bu sohada hali ham nazariy bo’shliqlar, empirik dalillar yetishmasligi va institutsional moslashuv zarurati mavjud.

METODOLOGIYA

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot va raqamli moliyalashtirish o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik. Yashil iqtisodiyotning samarali rivojlanishi bevosita moliyaviy resurslarning mavjudligi va ularning samarali taqsimlanishiga bog’liqdir. Biroq an’anaviy moliya

tizimi ko‘pincha ekologik yo‘naltirilgan loyihalarni yuqori tavakkalchilikli, uzoq muddatli va past rentabelli deb baholaydi. Shu sababli, bu sohada innovatsion moliyaviy vositalar zarurati ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, xususan fintech yechimlari, ushbu bo‘shliqni to‘ldirishda muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqda.

Fintech texnologiyalarining asosiy ustunligi ularning ochiqlik, tezkorlik, shaffoflik va inklyuzivlik tamoyillariga asoslanishidir. Raqamli moliyaviy xizmatlar yordamida ekologik loyihalarning moliyalashtirish jarayonini soddalashtirish, kichik investorlar uchun kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda mablag‘lar oqimini maqsadli tarzda boshqarish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Shu bois, fintech texnologiyalarining yashil iqtisodiyot bilan uyg‘unlashuvi nafaqat moliyalashtirish mexanizmini transformatsiya qiladi, balki iqtisodiy faoliyatning ekologik mas‘uliyat darajasini ham oshiradi.

Fintechning yashil moliyalashtirishdagi asosiy yo‘nalishlari. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fintech texnologiyalarining yashil iqtisodiyotga integratsiyasi quyidagi to‘rtta asosiy yo‘nalishda amalga oshirilmoqda:

a) Raqamli to‘lov tizimlari va mikroinvestitsiyalar. Mobil ilovalar, elektron to‘lov tizimlari va “open banking” platformalari nafaqat iqtisodiy tranzaksiyalarni osonlashtirmoqda, balki ekologik maqsadlarga yo‘naltirilgan mikroinvestitsiyalarni ham kengaytirmoqda. Masalan, ayrim xalqaro banklar foydalanuvchilarga to‘lov harakati asosida “uglerod izini” avtomatik hisoblaydigan va bu miqdorni qoplash uchun ekologik fondlarga kichik hissa qo‘shish imkonini beradigan xizmatlarni yo‘lga qo‘ygan. Bu model nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi, balki fuqarolarning “yashil ongini” shakllantiradi;

b) Kraudfanding va p2p-moliyalashtirish platformalari. Kraudfanding va “peer-to-peer” moliyalashtirish platformalari ekologik loyihalar uchun muqobil kapital manbai sifatida shakllanmoqda. Bu mexanizmning asosiy afzalligi — markazlashmagan moliyaviy muhitda keng jamoatchilikni jalb etish imkoniyati. O‘zbekiston sharoitida bunday platformalar hali dastlabki bosqichda bo‘lsa-da, ularning istiqboli juda yuqori. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va “yashil startaplar” yo‘nalishidagi loyihalar uchun raqamli kraudfanding mexanizmi moliyaviy kirish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi;

c) Blokcheyn va tokenlashuv asosidagi moliyalashtirish. Blokcheyn texnologiyasi moliyalashtirish jarayonlarini shaffoflashtiradi, tranzaksiyalarni kuzatishni osonlashtiradi va korrupsiya xavfini kamaytiradi. “Yashil obligatsiyalar”ni tokenlashtirish orqali ularni raqamli aktivlarga aylantirish investorlar uchun likvidlikni oshiradi va kichik sarmoyadorlarga ham kirish imkonini beradi. Bunday yondashuv ekologik loyihalarning ishonchliligini ta‘minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki blokcheyn asosidagi tizimlar ekologik natijalarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi;

d) Sun‘iy intellekt (AI) va ma‘lumot tahlilining qo‘llanilishi. AI texnologiyalari yordamida ekologik loyihalarning moliyaviy xavflarini baholash, ularning uzoq muddatli samaradorligini oldindan aniqlash va investitsion qarorlarni optimallashtirish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Fintech kompaniyalari “Big Data” tahlili asosida

ekologik ko‘rsatkichlarni kuzatib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o‘z navbatida, yashil iqtisodiyotda risklarni kamaytirish va sarmoya oqimini barqarorlashtirishga yordam beradi.

Fintech va yashil iqtisodiyot integratsiyasining institutsional jihatlarini. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, fintech asosida yashil moliyalashtirishni muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yish uchun samarali institutsional muhit zarur. Bunda bir necha asosiy yo‘nalishlar ajralib turadi:

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: yashil moliyalashtirish instrumentlarini, jumladan tokenlashgan obligatsiyalar, raqamli kreditlash va kraudfanding mexanizmlarini tartibga soluvchi aniq me‘yoriy-huquqiy hujjatlar zarur. Ayni paytda O‘zbekiston qonunchiligida fintech faoliyatining huquqiy asoslari mavjud bo‘lsa-da, yashil moliya bilan integratsiyani tartibga soluvchi alohida me‘yorlar ishlab chiqilmagan.

Regulyator va innovatsion sektor o‘rtasidagi hamkorlik: Fintech sohasida barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun davlat organlari, tijorat banklari, startaplar va xalqaro moliya institutlari o‘rtasida hamkorlik mexanizmlari mustahkamlanishi zarur. Masalan, “regulatory sandbox” tizimi orqali yashil fintech mahsulotlarini sinovdan o‘tkazish jarayonini joriy etish amaliyotda yaxshi samara beradi.

Moliyaviy savodxonlik va raqamli madaniyatni oshirish: aholi va tadbirkorlar raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishlari zarur. Ayniqsa, ekologik loyihalar uchun investitsion imkoniyatlarni tushunish, fintech platformalariga ishonchni oshiradi va moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi.

1-jadval

Yashil iqtisodiyot va Fintech integratsiyasining asosiy yo‘nalishlari¹

Yo‘nalish turi	Fintech texnologiyasi	Amaliy qo‘llanilishi	Kutilayotgan ta‘sir
Yashil investitsiyalar	Kraudfanding, P2P kreditlash	Kichik investorlarning ekologik loyihalarga qo‘shilishi	Moliyaviy inklyuziya va kapital oqimini diversifikatsiya qilish
Yashil obligatsiyalar	Blokcheyn, tokenizatsiya	“Yashil bond”larni raqamli aktiv sifatida chiqarish	Shaffoflik, investitsion ishonchning oshishi
Yashil to‘lov tizimlari	Mobil banking, raqamli to‘lov platformalari	Ekologik mahsulotlar uchun “yashil cashback” tizimi	Iste‘molchilarda ekologik ongni oshirish
Ekologik sug‘urta tizimi	Insurtech (raqamli sug‘urta)	Iqlim xavfini baholash va avtomatik kompensatsiya tizimlari	Xavflarni kamaytirish, barqarorlikni oshirish
Raqamli ekologik tahlil	Sun‘iy intellekt (AI), Big Data	Loyihalarning ekologik samaradorligini tahlil qilish	Ilmiy asoslangan investitsion qarorlar

Barqarorlik standartlarini joriy etish: Fintech orqali moliyalashtirilayotgan loyihalar uchun yagona “yashil sertifikat” yoki “barqarorlik indeksi” tizimini joriy etish zarur. Bu tizim ekologik investitsiyalarning haqiqiy “yashil” xarakterga ega bo‘lishini ta‘minlaydi hamda investorlar uchun shaffoflikni kuchaytiradi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib, fintech ekotizimi shakllanmoqda. Mobil banking, elektron to‘lov tizimlari, onlayn kreditlash

¹ Muallif ishlanmasi.

va raqamli sug'urta kabi yo'nalishlar kengayib bormoqda. Shu bilan birga, hukumat tomonidan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (2019–2030-yillar) doirasida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya jalb etish va ekologik startaplarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar yordamida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish imkoniyatlari O'zbekiston uchun yangi strategik yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Fintech innovatsiyalarini ekologik loyihalar bilan uyg'unlashtirish orqali mamlakatda barqaror, ekologik xavfsiz va inklyuziv iqtisodiy rivojlanish modelini yaratish imkoniyati mavjud.

Mazkur jadvalda yashil iqtisodiyot va raqamli moliyaviy texnologiyalar (fintech) o'rtasidagi integratsiyaning eng muhim yo'nalishlari tizimli tarzda yoritilgan. Jadval to'rtta asosiy komponentdan iborat: yo'nalish, texnologiya, amaliy qo'llanish va kutilayotgan natija. Shuningdek, fintech vositalari orqali moliyalashtirish jarayonlari ekologik barqarorlikni ta'minlashga sezilarli hissa qo'shadi. Masalan, raqamli to'lov tizimlari ekologik xarajatlarni kuzatish va "uglerod izi"ni kamaytirish imkonini bersa, kraudfanding va P2P kreditlash mexanizmlari kichik investorlarni ham yashil loyihalarga jalb qiladi. Blokcheyn asosidagi moliyalashtirish vositalari esa investitsiyalar shaffofligini oshiradi va korrupsion xavflarni kamaytiradi.

Shu bilan birga, jadval fintech texnologiyalari orqali yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni qanday mexanizmlar asosida amalga oshishini aniq ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar uyg'unligi bugungi kun iqtisodiy rivojlanishining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Tadqiqot davomida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli moliyaviy texnologiyalar (fintech) ekologik barqarorlikni ta'minlash, ekologik loyihalarni samarali moliyalashtirish hamda kapital oqimini ekologik xavfsiz yo'nalishlarga yo'naltirish uchun innovatsion mexanizmlar yaratmoqda. Boshqacha aytganda, fintech texnologiyalari moliyaviy tizimning ekologik transformatsiyasi uchun zarur bo'lgan raqamli infratuzilmani shakllantirmoqda.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, fintech texnologiyalari yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning strategik vositasiga aylanmoqda. Bu jarayon O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy modernizatsiya yo'nalishi, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash, xalqaro moliyaviy tizimda yangi o'rinni egallash va "raqamli, yashil" iqtisodiyot modelini shakllantirish imkoniyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5030957>
2. OECD. Green Finance and Digitalization: Opportunities for Sustainable Development. Paris: OECD Publishing. – 2022.
3. World Bank. Fintech and the future of green finance: policy perspectives for emerging economies. Washington, DC: The World Bank Group. – 2021.

4. United nations environment programme Financing the green economy: the role of digital financial innovations. Nairobi: UNEP. – 2020.
5. Global green growth institute. Digital finance for climate action: leveraging fintech for green growth. Seoul: GGGI. – 2023.
6. Y.Chen, U.Volz. Digitalization, financial inclusion and green finance: empirical evidence from emerging markets. *journal of sustainable finance and investment*, 2021. 11(3), 213–232.
7. D.Zhang, X.Li. Blockchain technology in green finance: opportunities and challenges. *technological forecasting and social change*, 2020. 155, 119–978.
8. Kose, M. A., Sugawara, N., & Terrones, M. Fintech and Financial Development in Emerging Economies. IMF Working Paper, WP/21/45. – 2021.
9. S.Schmidheiny. Financing change: the financial community, eco-efficiency and sustainable development. MIT Press. – 2019.
10. Li, G., Wang, H., & Zhao, L. (2022). Fintech-Driven Green Transformation in Developing Economies: A Conceptual Framework. *Sustainability*, 14(18), 11345.
11. Rahimov, B. (2021). “Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va uning O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni.” *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, №5, 24–32-betlar.
12. Karimov, A. (2022). “Raqamli moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishning iqtisodiy samarasi.” *TDIU Ilmiy axborotlari*, №4, 45–52-betlar.
13. International Monetary Fund (IMF) (2022). Fintech: The Experience So Far and Policy Considerations. Washington, DC: IMF Publications.
14. European Investment Bank (EIB) (2021). Green Digital Finance: How Fintech Can Support a Sustainable Future. Luxembourg: EIB Report Series.
15. World Economic Forum (2020). Building a Green Fintech Ecosystem: Lessons from Global Leaders. Geneva: WEF.
16. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
17. UNDP Uzbekistan (2023). Yashil iqtisodiyot: Rivojlanish istiqbollari va moliyaviy imkoniyatlar. Toshkent: BMT Taraqqiyot dasturi vakolatxonasi.
18. Allen, F., Gu, X., Jagtiani, J. Fintech, digital financial inclusion and economic development. *journal of financial stability*, 2020. 46, 100–118.
19. D.Tapscott, A.Tapscott. Blockchain revolution: how the technology behind bitcoin is changing money, business and the world. Penguin Books. – 2018.
20. IFC (International Finance Corporation). Green bonds and digital finance: mobilizing capital for climate investments. Washington, DC: IFC. – 2022.
21. A.Demirgüç-Kunt, L.Klapper. Digital financial services and sustainable development goals. World Bank Policy Paper No. 10215. – 2022.
22. M.Qodirova. “O‘zbekiston sharoitida yashil moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.” *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 2023. №2, 56–64-betlar.
23. S.Yao, W.Cheng. Fintech and sustainable banking: pathways to green growth. *international journal of finance and economics*, 2022. 27(5), 6281–6294.

24. Asian Development Bank (ADB). Innovations in Green Digital Finance: Case Studies from Asia-Pacific. Manila: ADB Publications. – 2023.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**